

Scientific adviser: Saydamatov I.N

Shukurova.S.B

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy tarjima nazariyasi sohasida frazeologizmlarning tarjimasi eng qiyin va qiziqarli muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar hamda bu jarayonda e'tiborga olinadigan asosiy omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, obrazli-uslubiy ma'no, frazeologik obraz, tarjima mahorati.

Abstract: Translation of phraseology is one of the most difficult and interesting problems in the field of modern translation theory. This article discusses the problems encountered in the translation of phraseological units in English and the main factors to be considered in this process.

Keywords: phraseology, phraseological units, figurative-stylistic meaning, phraseological image, expressions, translation skill.

Ma'lumki, frazeologiya universal hodisa bo'lib, dunyoning har bir tiliga xosdir. Frazeologizmlarga shunday ta'rif berish mumkin, ular hayotiy haqiqatlarni, turli ma'lumotlarni, hodisalarni o'zida mujassam etgan o'ziga xos mikrotekstlar.

Frazeologizmlarni tarjima qilish muammolariga kelganda, nazariy ishlarda ularga ko'p e'tibor berilgan, jumladan V.S.Vinogradov, A.V.Fedorov hamda V.N.Komissarovlar tomonidan frazeologiyaning asosiy tushunchalariga oid bir qancha izlanishlar olib borilgan.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni tarjimada adekvat talqin etish o'ta murakkab va mas'uliyatli masalalardan hisoblanadi. Tarjimon ularni tarjima qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar: a) tarjimada ma'lum bir iboraning yoki so'zning tarjimasini lug'atdan topa olmasligi yoki to'g'ri keladigan tarjima variantini tanlay olmasligi mumkin; b) iboralarni matnda aniqlab olishda; s) obrazlilik xususiyatiga ega bo'lmagan va obrazlilik xususiyatiga ega bo'lgan frazeologizmlar tarjimasida; d) milliy-madaniy va ekstralingvistik xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlarni tarjimasida; f) to'liq va qisman mos keladigan ekvivalentga ega bo'lgan frazeologizmlar tarjimasida;

Frazeologik iboralar tarjimasi juda muhim emas deb o'ylasak, xato qilgan bo'lamiz. Hozirda juda ko'p mamlakatlar bilan ijtimoiy iqtisodiy jabhalarda aloqalar kuchayib borilishini hisobga olinadigan bo'lsak xorijliklarni yurtimizga tashrifi kun sayin ortib borayotganini etirof etamiz. Shunday ekan ularning tillaridagi barcha leksik qurilmalarni o'rganish va tarjima qilish ommalashib bormoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'rganish va o'qitishdagi asosiy muammo bu – tarjima. So'zlarni, iboralarni, jummalarni va ayniqsa idiomalarni tarjima qilishga urinish ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Idiomalarning leksik, semantik va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish juda qiyin masala. Tillarning genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan ma'lumki, ingliz tilining tuzilishi o'zbek tilining tuzilishidan farq qiladi, ya'ni ular alohida til oilalariga mansub. Natijada turli tillarning grammatik tuzilmalari bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida affikslar, predloglar yoki jins toifalari mavjud emas. Ingliz tilida esa artikl, predlog va affikslar mavjud, gap tuzilish strukturasi ingliz tilida butunlay farq qiladi.

Frazeologizmlar 3 tipga bo'linadi:

1. Barqaror so'z birikmalari, idiomalar bu shunday birikmalarki, ular umuman bo'linmaydigan, ajralmaydigan turg'un birikmalar, ularning umumiy ma'nosi ular tajribadagi so'zlar ma'nolariga bog'liq emas.

Masalan:

To kick the bullet – jon bermoq

To be all thumbs – qo'pol, beso'naqay odam

2.Frazeologik birlik – ular umumiy ko'chma ma'noga eg abo'lgan holda komponentlarning ma'no munosabatiga ko'ra ajralmasligini saqlab qoladi.

Masalan:

To paint the devil blacker than he is – vahimaning ko'zi kata

To throw mud at smb – birovni loyga bulg'amoq

3.Frazeologik birikma – bu turg'un birikmalar, ularning tarkibiga erkin hamda frazeologik bog'langan ma'nolari bor so'zlar kiradi.

Masalan:

A bosom friend – qadrli do'st

Black frost – qorsiz sovuq.

A.V.Kunin ingliz tilidagi frazeologizmlarning o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud bo'lgan frazeologik birliklar va o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud bo'lmagan frazeologik birliklarga bo'lgan.

Frazeologizmlarning tarjimasida frazeologizmlar ishtirok etayotgan kontekstning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Tarjima qilayotgan matn yoki gapni ikki qismga bo'lish mumkin. Tarjima qilinayotgan tilda ekvivalentga ega bo'lgan frazeologizmlar va ekvivalenti bo'lmagan frazeologizmlar. To'liq ekvivalentlik bu – ingliz tilidagi frazeologizmlar bilan ham ma'no ham struktura jihatdan mos keladigan frazeologizmlardir.

Masalan:

A tree is known by its fruit – Daraxtiga ko'ra mevasi.

An empty sack cannot stand upright – Bo'sh qop tik turmas.

First think, then speak – Avval o'yla, keyin so'yla.

Qisman mos leladigan frazeologizmlar bu – strukturaviy va Grammatik yoki leksik xususiyatlariga ko'ra farqiga ega bo'lgan frazeologizmlar.

Masalan:

To get out of bed on the wrong side – Chap oyog'i bilan turmoq.

There is no smoke without fire – Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

V.N.Komissarov ta'kidlashicha, frazeologizmlarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy vazifasi - bu biror iborani tarjima qilishda, tarjima qilayotgan (ya'ni o'zbek tilida) tilidagi gap tuzish qoidalariga rioya qilishdan iborat.

Frazeologizmlarni tarjima qilishda, eng avvalo, ularni milliy-madaniy xususiyatlariga hamda obrazlilikno ifoda etishiga e'tibor berishimiz kerak.

Masalan, ingliz tilidagi frazeologik birliklarni ma'nolari bog'liqligi jihatdan 2 guruhga bo'lish mumkin: obrazlilik xususiyatiga ega bo'lmagan va obrazlilik xususiyatiga ega bo'lgan frazeologizmlar.

Obrazlilik xususiyatiga ega bo'lmagan frazeologizmlar tarjimasida unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi, ular ikki usul bilan tarjima qilinadi: bir so'z bilan va ekvivalentlar yordamida.

1. Bir so'z bilan:

To have a rest – dam olmoq

Old dragon – shayton

2. Ekvivalent yordamida (to'liq va qisman)

A)to'liq mos kelishlik:

Red book – qizil kitob

The black prince – qora shahzoda

B)qisman mos kelishlik:

Black diamonds – qora oltin

Milk cow – sog'in sigir

Aksincha, obrazlilik xususiyatiga ega bo'lgan frazeologizmlar tarjimasida birmuncha qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Tarjima jarayonida turli xil usullardan foydalaniladi va ular quyidagi tartibda beriladi:

• A) To'liq mos kelishlik:

First think, than speak – avval o'yla, keyin so'yla

The dog bark, but caravan goes on – it hurar, karvon o'tar

B) Qisman mos kelishlik:

Red meat – qo'y go'shti

Talk turkey – ochiqdan-ochiq gapirmoq

• Ekvivalentlar yordamida:

A) Butunlay boshqa leksik birlik bilan, ya'ni o'xshash iboralar bilan

Maqollar tarjimasida:

A tree is known by its fruit – daraxtiga ko'ra mevasi

Obrazlilik xususiyatiga ega bo'lgan frazeologizmlar:

To make a mountain out of a molehill – pashshadan fil yasamoq

B) Tasviriy usul bilan tarjima qilish, ya'ni o'zbek tilida muqobil variant topilmaganda:

White elephant – xonavayron qiluvchi sovg'a

Black Monday – ta'tildan keying birinchi o'qish kuni

C) Milliy koloritga ega bo'lgan frazeologizmlar:

Carry coals to Newcastle – daryo bo'yida quduq qazima

When Ethiopian changes his skin – tuyaning dumi yerga tekkanda

Tilning o'ziga xos frazeologizmlar ingliz urf-odatlarini, dini va tarixi bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanadi. Shuningdek ularga mashhur ingliz adabiyotlaridan kelib chiqqan so'zlar ham kiritiladi. Masalan: a fool's paradise ("Romeo and Juliet"), the green-eyed monster ("Othello"), murder will out ("Macbeth"), etc. Ingliz tili frazeologiyasida Shekspir asarlaridan o'zlashtirilgan juda ko'plab frazeologizmlar mavjud bo'lib, ularni shekspirizmlar deb ham atashadi.

“Keng ma'noda frazeologizmlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda har qanday hollarda ham ularning obrazli tayanch asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilangina o'tirish ma'noning o'zgarishiga ma'noviy siljish hodisasi sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin”. (G'.Salomov, 1938,120.) Demak, agarda frazeologizmlarni tarjima qilayotganimizda frazeologizmlarda obrazli tayanch asoslar uchrasa, ularni aynan muvofiq keladigan variantlar bilan emas, balki unga boshqa tayanch asosli ibora bilan ham o'zgartirish mumkin, shunda tarjima qilayotgan frazeologizmning leksik-frazeologik va obrazli-uslubiy ma'nosi saqlab qolinadi. Masalan:

Ingliz tilidagi “First catch your hare, then cook him”

O'zbek tilida “Tug'ilmagan buzoqqa, qoziq qoqma”

Frazeologizmlarni tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki ular leksik, semantik va struktura jihatidan ikki tilde bir-biriga mos kelishi murakkab hodisadir. Ammo ba'zi hollarda mos kelishi mumkin. Masalan:

Frazeologik birliklarning leksik jihatdan mosligi:

Black gold – qora oltin

Black list – qora ro'yxat (temir daftar)

Frazeologik birliklarning leksik jihatdan mos kelmasligi:

Donkey between two bundles of hay – ikki o't orasida turmoq

Once in a blue moon – onda-sonda, kamdan-kam

Frazeologik birliklarning semantik jihatdan mos emaslik:

A black hen lays a white egg – qora sigir oq sut berar

Like a cat on hot bricks – oyog'i qo'ygan tovuqday pitirlamoq

Frazeologik birliklarning semantik jihatdan mos emaslik:

Keep it under your hat – sir saqlamoq

Sea dog – mohir dengizchi

Frazeologik birliklarning struktura jihatdan mosligi:

Old fox – qari tulki

Small potato – kichkina odam

Frazeologik birliklarning struktura jihatdan mos emaslik:

Cut the melon – foydani bo'lmoq

Top banana – boshliq.

Frazeologik iboralar tuzilishi jihatidan so'z birikmasi, soda va qo'shma gap shakllarida keladi:

1. So'z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora.

2. Soda gap shaklidagi frazeologik ibora.

3. Qo'shma gap shaklidagi frazeologik iboralar.

Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar:

Go to the wrong end of the stick (misunderstand) – verb+object

Pull a fast one (trick, decisive smb) – verb+object

Poke your nose into (interfere) – verb+object

Be over the moon (extremely happy) – verb+prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed) – verb+prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance) – verb+prepositional phrase.

Ingliz va o'zbek idiomalarining shakl va ma'nodagi o'zaro farqlari tarjimani muammoli qiladi. Masalan, "hot under the collar" so'zma-so'z "yoqa ostidagi issiqlik" (yoqa tagida issiq) deb tarjima qilingan bo'lsa, "tepa sochi tikka bo'ldi" bu iboraning o'zbekcha variantidir (hair stand on end). Misoldan ko'rinib turibdiki, idiomalarning o'zlashtirilishidagi qiyinchilik shakl va ma'no jihatdan nomutanosiblik bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, idiomalarni ingliz tilidan boshqa tilga tarjima qilish juda qiyin. Ularning ko'pchiligi yorqin, ixtirochi, lakonik va noaniq bo'lganligi sababli, bu shunday. Tarjima qilishda iboraning mazmunini ifodalashgina emas, balki uslubiy maqsadni yodda tutgan holda uning obrazlilikini ham ko'rsatish muhimdir. Idiomalarni tarjima qilishda tarjimon mahalliy tilda ekvivalent atama topib, idiomalarning stilistik vazifasini saqlab qolgan holda, ularning mazmuni va obrazlilikini uzatishi kerak. Mahalliy tilda bir xil tasvir bo'lmasa, tarjimon "taxminan moslik" bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi.

Frazeologik birliklarga misollar mavjud:

At seventh hour – tepagi daqiqada, eng tepagi odamda.

Beat swords into plow-shares – qilichlarni bo'lg'alab, o'moch yasamoq, tinch mehnatga o'tmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq.

The breath of the nostrils – hayotiy zarurat, suv va havodek zarur.

Cast ones bread upon the waters - suvga non uloqtirmoq; tuzatishini o'ylamay biror ish qilmoq.

The olive branch - zaytun shohi; tinchlik va osudalik timsoli.

The root of evil -yovuzlikning ildizi; mol-dunyoga muhabbati.

Heap coals of fire on somebodys head -uyaltirmoq, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarmoq.

Ingliz tilidagi maqolga o'zbek tilida xuddi shunday maqol bo'lmaganligi sababli, unga ma'no jihatdan mos keladigan ibora bilan beriladi. Iborani so'zma-so'z tarjima qilganda umuman boshqa ma'no kelib chiqadi, bu esa iboraning

ma'nosini ochib berolmaydi, bu iboraga o'zbek tilidagi *sabr kosasi to'ldi* iborasi mos keladi. Ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi va o'zbek tilidagi iboralar bir-biriga stilistik, strukturaviy va leksik tomondan mos kelmasligini, ammo semantik tomondan mos kelishligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlarning tarjimasida biz ularni ma'nolarini yetkazib berish va obrazlilik xususiyatlarini ko'rsatib berishi, ingliz tilida o'xshash tomonlarini topa bilishi va frazeologizmlarning stilistik funktsiyalariga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova F.S. Ingliz tili frazeologizmlarini o'rgatish metodikasi. Toshkent (2011).
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва: Высшая школа, (1996)
3. Sul-tonqulova G.A. Expression of phraseological units in modern English and uzbek languages. Экономика и социум № 7 (98) (2022).
4. Jumayev A.E. Peculiarities of translation of phraseological units in English. Innovative development in the globe science Boston, USA(2023).
5. Yusupjanova F.Q. Ingliz tilida frazeologik birliklarni o'qitishdagi muammolar. Innovative Achievements in science (2023)
6. Ubaydullayeva M.O'. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari. Journal of new century innovations, (2022) October
7. Ubaydullayeva M.O'. Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va funksional xususiyatlari. Scientific reports of Bukhara State University 2024/2 (107)
8. Mirzayeva D.I. Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning kontekstual ma'nosi va tarjima masalalarining xususiyatlari. Science and innovations UIF-2022: 8.2 ISSN: 2181-3337